

МУГАЛЛИМ ҲАМ ЎЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҶ



ISSN 2181-7138

№ 1/2 2021 жыл

Илимий-методикалық журнал

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия аъзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ
Кеңесбай АЛЛАМБЕРГЕНОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ
Өсербай ӨЛЕҶОВ
Асқар ДЖУМАШЕВ
Кеңесбай ДАУЛЕТЯРОВ
Гўлнара ЖУМАШЕВА
Батырбек КАИПБЕРГЕНОВ
Амангелди КАМАЛОВ
Сарсен КАЗАХБАЕВ
Гўлмира КАРЛЫБАЕВА
Сабит НУРЖАНОВ
Уролбой МИРСАНОВ
Арзы ПАЗЫЛОВ
Зухра СЕИТОВА
Айдын СУЛТАНОВА
Тажибай УТЕБАЕВ
Ризамат ШОДИЕВ
Ойбахор ШАМИЕВА
Бекзод ХОДЖАЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Гўлрухсор ЭРТАШЕВА

Шўлкемлестириўшилер:

**Қарақалпақстан Республикасы
Халық билимлендириў
Министрлиги, ӨЗПИИИ
Қарақалпақстан филиалы**

**Ўзбекстан Республикасы
Министрлер Кабинети
жанындағы Жоқарғы
Аттестация Комиссиясы
Президиумының 25.10.2007
жыл (№138) қарары менен
дизимге алынды**

**Қарақалпақстан Баспа сўз ҳәм
хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге
алынды №01-044-санлы гўўалық
берилген.**

**Мәнзил: Нөкис қаласы,
Ерназар Алакөз көшеси №54
Тел.: 224-23-00
e-mail: uzniipnkkf@umail.uz,
mugallim-pednauk@umail.uz
www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz**

Журналға келген мақалаларға жуўан қайтарылмайды, журналда жарияланған мақалалардан алынған үзиндилер «Мугаллим ҳәм ўзликсиз билимлендириў» журналынан алынды, деп көрсетилиўи шарт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледи. Мақалада келтирилген мағлўматларға автор жуўапкер.

МАЗМУНЫ

ТИЛ ҲАМ ӘДЕБИЯТ

Хамроев Ғ.Х. Она тили таълимида нуткий кўникмаларни ривожлантирувчи ўқув топшириқларига прагматик ёндашиш	4
Ergasheva S.M. Она тили о'қитиш сифатини оshirishda о'quv lug'atlarining о'rni	7

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Айымбетов М.Қ. Билимлендириўдеги диний тәлиймат	10
Абдисаттарова Э.А. Куўанышбай Өтениязов Қарақалпақстанда химия мектебин жаратқан устаз	13
Шарипова Ғ.С., Абдуқодирова Н.А. Талаба қизларда амалий санъат орқали тадбиркорлик кўникмаларини ривожлантириш имкониятлари	16
Ражабова С.Ю. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларнинг конструкторлик – технологик фаолиятта тайёргарлигининг тузилмавий компонентлари	21
Арзиева Б.А. Инглиз тилини ўқитиш шароитида ўқувчиларнинг маънавий-ахлоқий компетентлигини ривожлантириш модели	26
Хайтметов Д.Т., Маматқулова С.К. Ўзбекистон бадий кулолчилигининг ривожланишида кулолчилик мактабларининг ўрни	30
Гўлямов К.М., Солиева Д.Б. Бадий кулолчиликни ўргатишда устоз-шогирд анъаналари талабаларнинг касбий компетентлигини ривожлантиришнинг муҳим омилли сифатида	33
Алланиязов А.Б. Ўқувчиларда қадриятли муносабатлар тажрибаси ва уни баҳолаш кўникмаларининг ҳосил бўлиши	36
Sharipova N.R. Yosh avlodni tarbiyasini shakllantirishda xalq maqollarning o'rni	40
Shamiyeva O.R., Ermatova G.P. Rahbarlik etiketi va muomala-madaniyati	43
Jabborova D.F. Modulli ta'lim-pedagogik texnologiyalarning muhim tarkibiy qismi sifatida	46
Кучкорова Н.М. Бўлажак педагогларнинг иқтисодий маданиятини шакллантириш шартлари	50
Akramova X.S., Tojiyeva N.I. Aqli zaif o'quvchilarning tafakkur jarayonlaridagi nuqsonlarni korrektsiyalashda o'yinlardan foydalanish yo'llari	53
Aliyeva D.M. Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini nomutaxassis bo'lgan yo'nalishlarni o'qitishda innovatsion yondashuvlar (defektologiya misolida)	60
Дошниязов Ж.К. Диагностическая характеристика для оценки уровня развития традиционных аспектов трудового воспитания и обучения учащихся Республики Каракалпакстан в семье и школе	63

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲАМ РУЎХИЙЛИҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Турекеев К.Ж. Реликты почитания барана у каракалпаков	69
--	----

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Абдусаматов А. Математика ўқитиш методикасини тадқиқ қилишда инновацион ривожлантиришнинг тизимли таҳлили	73
Ахмедов А.А. Усовершенствование экспериментальной компетентности будущих учителей физики	77

Гуломова Н. Х., Сайдалиев С.С. Критерии формирования пространственных представлений и графической грамотности студентов на примере изучения темы “виды”	80
Botirova N.Dj. The use of interactive tools in the process of development of research skills of students in learning mathematics	88

БАСЛАЎИШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

Джанпенсова Г.Э. Мактабгача таълим ташкилотларида ривожлантириш марказларида ўйинли таълимни ташкил этиш	92
Календарова З.К. Мактабгача таълим ташкилотларида болаларнинг математик тасавурларини шакллантириш методикасини такомиллаштириш муаммолари ва уларни бартараф этиш йўлидаги вазифалар	97
Kubayeva M.B. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta'lim-tarbiya berishda vizual texnologiyalarning o'rni	102
Азимова М.Ў. Мактабгача ёшдаги болаларда фазода мўлжалга олиш қobiliятларини ривожлантириш	106
Akramova X.S., Sulaymonova F.O. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar nutqning rivojlantirish xususiyatlari	109
Каримова К.Р. Бошланғич синф ўқувчиларининг мантикий фикрлашларини ривожлантириш усуллари	116
Холиқулова Ф.Х. Бошланғич синф ўқувчиларининг боғланишли нутқини шакллантириш усуллари	123
Марасулова Д.Н. Интерактивные технологии в обучении дошкольников английскому языку	129

ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ХӘМ СПОРТ

Турсуналиев И. Аҳоли саломатлиги – юрт бойлиги	133
Mirzayev A.M., Ochilova S.H.A. Kurash mashg'ulotlarida kurashchilarni tayyorlashda ma'naviy hamda jismoniy madaniyatini tarbiyalash	136
Абдуллаев И.Х., Иминова Ф.Б. Муրраббийлик касб моҳияти	139
Muxtarova X. Yuqori malakali sportchilarni tayyorlashning nazariy va metodik ahamiyati ...	143
Rasulov R.M., To'xtaxo'jayev X.B. Basketbolni o'rgatishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish hamda sog'lomlashtirish funktsiyasi	146
Mamatqulov R.S. Boshlang'ich sinf mashg'ulotlarida tetiklashtiruvchi jismoniy mashqlarni ta'lim klasteri metodi orqali olib borishning ahamiyati	151
Расулов Р.М. Психологические условия формирования специальной готовности спортсмена	155

Маҳаллада ўтказиладиган турли байрам тадбирларида умумтаълим мактаб ўқувчилари, спорт таълими муассасалари шугулланувчиларининг спорт соҳалари бўйича кўргазмили чиқишларини ташкил қилиш;

Маҳалла идораси (гузари)да стол тенниси ва маҳалла фахрийлари учун шахмат – шашка бўйича мусобақалар уюштириш;

Маҳалладаги давлат ва нодавлат мактабгача, мактаб, спорт таълими ташкилотларининг спорт заллари васпорт майдончасида аҳолининг ёшларига мос миллий харақатли ўйинлар: “Биз билан бажар, биздек бажар, биздан яхшироқ бажар!”, “Катта ёшдагилар учун аэробика”, “Бошланғич йога машғулоти”, “Ортиқча вазндан воз кеч!” каби жисмоний тарбия ва спорт машғулотларини ҳамда оилалар ўртасида ўтказиладиган “Отам, онам ва мен – спортчилар оиласи!” каби спорт мусобақаларини ташкил этиш ва оммавий ахборот воситаларида ёритиш кабилар.

Аҳолиси ақилва соғлом бўлган маҳалла – миллий ва умуминсоний кадриятлар бешиги бўлган замонавий ва файзли обод, хавфсиз кўркем кишлоқлар, овулларлар бўлиб, ҳаётга катта умид билан кириб келаётган ёшларни илм, касб – ҳунар танлашларида қобилият ва истеъдодларини рўёбга чиқариш, оилалардаги соғлом муҳит фуқароларни жисмоний тарбия ва спорт бўйича саломатлигини мустаҳкамлашга мақсадли ёндошув мотивациясини оширади ва салбий, зарарли одатлардан халос этади.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2020 йил 29 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси <https://president.uz/uz>.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 январдаги “Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва омаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5924-сон Фармони Lex.uz.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 30 октябрдаги “Соғлом турмуш тарзини ҳаётга кенг татиқ этиш ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора – тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6099-сон Фармони Lex.uz

РЕЗЮМЕ

Мақолада мамлакатимизда жисмоний тарбия ва спортга қаратилаётган алоҳида эътибор ҳамда аҳолини оммавий спорт тадбирларига жалб қилиш бўйича ташкил этилаётган тизимли ишлар баён қилинган.

РЕЗЮМЕ

В статье рассказывается об особом внимании, уделяемом физической культуре и спорту в нашей стране, а также о проводимой планомерной работе по привлечению населения к массовым спортивным мероприятиям.

SUMMARY

The article describes the special attention paid to physical culture and sports in our country, as well as the systematic work being done to attract the population to mass sports events.

KURASH MASHG'ULOTLARIDA KURASHCHILARNI TAYYORLASHDA MA'NAVİY HAMD AJISMONIY MADANIYATINI TARBIYALASH

Mirzayev A.M.

UzMU, “Taekvando va sport faoliyati” fakulteti, dotsent

Ochilova SH.A.

AndDU, “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodika” kafedrası o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: Kurash mashg'ulotlari, ma'naviy borlik, ahloq ideal, intellektual rivojlangan, yuksak ma'naviyat, salohiyat, qadriyat, yuksak ahloqiy tarbiya.

Ключевые слова: тренировка борьбы кураш, духовное воспитание, процесс воспитания, духовный идеал, интеллектуальное развитие, высокое моральное воспитание, гармоничное развитие молодежи, моральный статус.

Key word: moral ideal process of education, intellectual improvement, high moral education, harmoniously developed youth, moral status.

Insonning jismonan, qalban va ruhan salomatligi jamiyat taraqqiyotining asosiy negizini belgilab beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kurash" milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori 2017-yil 2-oktyabrda qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarorini amalga oshirish "Kurash" milliy sportini butun dunyoda yanada rivojlantirish va ommalashtirish, jamiyatda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, yoshlarni vatanparvarlik, milliy g'urur va Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, o'sib kelayotgan avlodda mardlik, kuchli iroda, olijanoblik va raqibga hurmat kabi sifatlarni shakllantirishga kuchli turtki bo'lib xizmat qiladi.

Ma'naviy yetuk inson deganda jismonan baquvvat, irodali, sabrli, g'alabalar uchun kurashuvchi va intiluvchan insonlarga berilgan ta'rif sifatida tushunamiz. Ma'naviy barkamollikka berilgan bunday munosabatlardan jismoniy yetuklik ham o'z o'rnini egallashi jamiyatimizning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Kurashning ko'pming yillik tarixini chuqur o'rganish natijasida haqiqatan ham kurash azaldan polvonlarning jismoniy va ma'naviy yetukligi namunasi sifatida sharaf topganligini, qadrlanganligini tasdiqlaydi. Shu bois, polvonlarning jismoniy baquvvatligi, navqiron qaddi-qomati yoki kurashchanlik, harakatchanlik, chaqqonlik va epcchilik jihatlari bir tomonu, ularning keng davrada o'zlarini qanday tutishi, odob-ahloqi, ma'naviy qiyofasi, raqibiga muomalasi, jamiyatga, tevarak-atrofga munosabati, vatanparvarligi alohid ao'rin tutgan.

Kurash shunchaki sport turigina emas, balki insonning jismoniy, ma'naviy kamolotga erishish vositasidir. Ulug' ajdodlar kurashni tarbiya maktabi deb atashgan. Ushbu maktab tarbiyalanuvchilarini, maydon ko'rganlarni esa qo'yidagicha ta'riflaganlar:

- Polvonlar qasam ichmaydilar, lekin hech qachon o'z yurtlariga xiyonat qilmaydilar.
- Polvonlar harom-harish, zinodan, makrdan, giyohvandlikdan nari yuradilar, bunday illatlarga qarshi kurashadilar.
- Polvonlar irodali odamlar, o'z maqsadi sari intiladigan, kim nima desa ergashib ketavermaydilar.
- Polvonlar zaiflar va nochorlarni himoya qiladilar, halol g'alabasiga berilgan sovrinning bir ulushini muhtojlarga tarqatadilar.
- Polvonlar olijanoblik, insoniylik, raqibiga nisbatan chuqur hurmat tuyg'ulari bilan boshqalardan ajralib turadi.
- Polvonlar o'z qat'iy fikriga ega bo'ladi.
- Kurashchilarga berilgan yuqoridagi ta'riflarda asrlar davomida shakillangan kurash falsafasi mujassamlashganini ko'rish mumkin. Ular quyidagilar:
- Mustaqil dunyoqarash va erkin tafakkurni shakllantirish;
- hurfkrli, mutelik va jur'atsizlikdan xoli bo'lgan, o'z bilimi va kuchiga ishonib yashaydigan qat'iyatli insonni tarbiyalash;

- ▶ odamlar, ayniqsa, yoshlarning irodasini baquvvat qilish, iymoni-e'tiqodini mustahkamlashga xizmat qiladigan ma'naviy muhit yaratish;
- ▶ inson tafakkurida o'zlikni anglash, muqaddas qadriyatlarni asrab-avaylash, mehr-oqibat kabi fazilatlarni yuksaltirish.

Ishonch bilan shuni aytish mumkinki, irodani toblaydigan, kishini halollik sari intilishga undaydigan, qiyinchiliklarni bardosh va chidam bilan yengib o'tishga o'rgatadigan, inson qalbida g'alabaga ishonch, g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladigan kurash shiddatkor hayot talablariga javob bera oldigan shaxslarga, bunyodkor yoshlarning barkamol bo'lishida o'zining benazir hissasini qo'shadi. Zero, polvonlikni yuqori natijalarga erishishida katta ahamiyat kasb etadi.

Kurash turli millatlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi, birlashtiruvchi, yaxshi yo'lga ergashtiruvchi ham ma'naviy, ham jismoniy sog'lomlashtiruvchi kuchdir. Bu esa shubhasiz hammamizning yutug'imizdir.

Kurashning shunchaki sport turigina emas, balki insonning u orqali jamiyatning nafaqat jismoniy, ma'naviy kamolotga erishishida ham salmoqli omil ekanligini inobatga olib, ulug' bobokalonlarimiz uni tarbiya maktabi deb ataganliklarini yuqorida qayd etgan edik.

Kurash bilan shug'ullanuvchi har bir talaba-yoshlarimiz o'z hayoti va amaliy faoliyatini muayyan ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy odob tamoyillari asosida qurmog'i, ularga qat'iyon amal etmog'i kerak bo'ladi. Boshqacha aytganda, kurashchilar – polvonlar bahsi, olishuvning o'zi shakllangan, mantiqiy-zichlikli, qat'iy ilmiy tizimga asoslangan, an'analar shakliga kirgan, ahloqiy- odobiy sifatlarini o'zida mujassam etgan muayyan qonun- qoidalar va me'yoriy normalarni taqozo etadi.

Modomiki, kurash, kurashchilar – polvonlardan javonmardlik, jasurlik, qat'iylilik, halollik, to'g'rilik, mardlik, va poklik singari yuksak fazilatlarni namoyon etishni talab etar ekan, bu o'z navbatida ularning zimmasiga katta mas'uliyat hissini ham yuklaydi. Zero, boshqalarga ibrat- namuna ko'rsatadigan bu toifaga mansub kishilar avvalo o'z shaxsini jismonan va ruhan takomillashtirib, yetuklik va komillik sari doimiy harakatlanib borishlari zarur bo'ladi.

Kurashchilar ma'naviyatida ham boshqasohalardagi kabi o'z-o'zini anglash, bilimdonlik, qalbi tozalik, saxiylik, samimiylik, xayrixohlik, iymonlilik, halollik, e'tiqodlilik, diyonatlilik, poklik, mehr-shafqatlilik, vijdonlilik, rostgo'ylik, adolatparvarlik, ota-onagahurmat, oilaga sadoqat, vafodorlik, to'g'rilik va boshqalar, millatning vakili sifatida o'zini anglash, milliyg'urur, millatparvarlik, vatanparvarlik, millattaqdiriganisb atanmas'uliyatni, milliy manfaat ustuvorligini his etish, milliytil, milliy tarix, adabiyot, san'at, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar, davlat tizimiga hurmat, qonunlarga hurmat va itoatkorlik, vazminlik, o'z kasbining mohir ustasi bo'lish, mamlakat ichki va tashqi faoliyatidan xabardor bo'lish va uni qo'llab-quvvatlash, mamlakat ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotida faollik kabi tushunchalar, fazilatlar, millatlar, davlatlar, halqlartarixi, madaniyat, sport turlarining rivojlanishi va jismoniy madaniyatining milliy, an'anaviy madaniyatning rivojlanishdagi o'rniga alohida e'tibor beriladi.

Xulosa qilib aytganda kurash mashg'ulotlari jaryonida talaba-yoshlarni ma'naviy va jismoniy barkamoliligi, insonning dunyoqarashi, e'tiqodi, ruhiyati, xulq-atvori, ahloq – odobi bilan bevosita aloqadorligi bilan ajralib turadi. Ma'naviy va jismoniy barkamol

talaba- yoshlar xalq taqdiri va farovonligi, Vatan taqdiri va uning ravnaqini o'ylaydilar. Boshqacha aytganda ma'naviy barkamol insonlarga buyuk kelajakni yarata oladilar. Jismoniy yetuk insondagi ma'naviyat atrofida insonlarning e'tiborida bo'lish bilan bir qatorda, yoshlarimiz tomonidan ham doimiy kuzatib boriladi va bunday ma'naviyatni ular o'z turmush tarzlariga aylantirib olishlari mumkin. Agar jismoniy tarbiyava sport bilan shug'ullanuvchi insonlarning ma'naviyati milliy ma'naviyatimizdagi oliyjanoblik, mehribonlik tuyg'ularini olgan bo'lsa, ularning yo'llarini davom ettiruvchi yoshlarda ham bu tuyg'ular shakllanib boradi. Jismoniy barkamollikka erishgan insonlar qanday yoshda bo'lishidan qat'iy nazar, jamiyatdagi har qanday keraksiz, yot, jirkanch illatlardan uzoq bo'la olish holatini o'zlarida shakllantirgan bo'ladilar. Kurashchilar o'zlaridagi har bir harakatini nazorat ostiga olish hissiyatini o'zlarida tarbiyalab boradilar, bu esa bunday insonlarga musobaqalarda yaxshi natija ko'rsatish imkoniyatini beradi. Kurash bilan shug'ullanuvchi yoshlarimizning ma'naviyatini o'rganishda oila, murabbiylar, atrofida do'stlarining ma'naviyatini o'rganish orqali olib borishga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham ma'naviy barkamol insonni, sog'lom avlodni tarbiyalash muhim va dolzarb masala bo'lib qolaveradi.

Adabiyotlar:

1. Atoev A.Q. Kurash o'smir va yoshlarni kurashga o'rgatishning vositalari. - T., 1987. 15-b.
2. Atoev A.Q. O'quvchi yoshlarni o'zbek kurashiga o'rgatish uslubiyati. - T., 2005. 56-b.
3. Kerimov A.F. Kurash tushamani. - T., 1990. - 110 b.
4. Kerimov A.F. Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti. - T., 2001. - 15 b.
5. Yusupov K. Kurash xalqaro qoidalari, texnikasi va taktikasi. - T., 2005. 20-b.
6. Ochilov S. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari. - T., 1997. - 56 b.
7. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. - T., 1998. - 24 b.
8. Xo'jamurodov N. Ma'naviyat qadriyatlar va milliy o'zligini anglash. - T., 1991. - 35 b.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada kurash mashg'ulotlari jarayonida iqtidorli-yoshlarning barkamol inson bo'lib tarbiyalanishida yuksak ma'naviy qadriyatlarning o'rni va roli ko'rsatib berilgan. Yurtimizning bugungi kunida kurash mashg'ulotlari orqali yoshlarning kelajagi barkamol va salohiyatli avlodni tarbiyalashiga bog'liq bo'lgan holatlar yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

Статья рассматривается нравственное воспитание молодежи и роль кураша (борьбы) во время тренировок также формирование высокой духовности спортсменов. В современном государстве большое внимание уделяется спортивному воспитанию в особенности национальной борьбе кураш и гармонично развитой молодежи.

SUMMARY

In this article is described the role of the ideal moral mentality of the youth in educating as an intellectual person while training wrestling of sportsmen. In present some cases which are related to educate ideal and intellectual generation are enlightened in our country.

МУРАББИЙЛИК КАСБ МОҲИЯТИ

Абдуллаев И.Х.

ЎзМУ Таэквондо ва спорт фаолияти факультети ўқитувчиси

Иминова Ф.Б.

ЎзМУ Таэквондо ва спорт фаолияти факультети талабаси

Таянч сўзлар: мураббийлик, соғлом турмуш тарзи, кўникма ва малака.